

**BOTANIKA FANINI O'QITISHDA DORIVOR O'SIMLIKLARNING FOYDALI XUSUSIYATLARI****Qudratova O'g'iloy Gulmurod qizi***Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 14-IDUMning biologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada botanika fanini o'qitishda dorivor o'simliklarning foydali xususiyatlari, dorivor o'simliklarni yetishtirish, dorivor o'simliklarning kasalliklarga tasir kuchi va ulardan tibbiyotda dori-darmon tayyorlash haqida eng so'nggi ma'lumotlar keltirildi.*

**Kalit so'zlar:** *Dorivor o'simliklar, alkaloidlar, barg, gul, meva, urug', glikozid, efir.*

Botanika fanini o'qitishda o'quvchilarda milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr-muhabbat tuygularini uyg'itish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda dars va darsdan tashqari ekskursiyalar tashkil etish, O'zbekistonning tabiiy o'simliklar olami va ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini o'quvchilarda shakllantirish muhim ustuvor vazifadir. O'qituvchi botanika fanini o'qitishda ekalogik,estetik,huquqiy,iqtisodiy,mexnat tarbiyasini amalga oshirishni va o'quvchilarni ongli kasb tanlashga o'rgatishi lozim.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qarib 40-47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi.

Dorivor o'simliklardan ko'proq, anor, achchiqmiya, bodom,dorivor gulxayri, yong'oq, jag'-jag', zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo't, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko't, tog'rayhon, qizilcha, qoqio't va boshqalari tarqalgan. S.Q. Islombekov nomidagi Toshkent farmasevtika zavodida O'zbekistonda o'sadigan va ekiladigan dorivor o'simliklardan turli tuman dorilar tayyorlanadi. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan alkaloidlar olishda O'zbekiston FA O'simlik moddalari kimyosi institutining xizmati katta. Institutda 4000 dan ortiq o'simlikning turli organlari alkaloid olish maqsadida o'rganilib, ulardan 1000 ga yaqin tabiiy birikmalar ajratib olingan. O'zbekiston o'simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Cho'l va dashtlar, tog'lar va adirlar, pasttekisliklar va daryo deltalari yonma-yon joylashib ajoyib manzara hosil qiladi. Bu aql bovar qilmaydigan bo'lib tuyulishi mumkin, ammo aslida Markaziy Osiyoning qo'shni mintaqalari bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning tog'laridagi maydon birligiga nisbati bo'yicha o'simliklar soni bir necha baravar ko'p.

Mamlakatning boy o'simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o'simliklar mavjud, ular orasida dorivor o'simliklar ham bor. Bunday o'tlar ekologik toza bo'lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida ishlatiladi.

O'zbekistonda eng keng tarqalgan dorivor o'simliklar rayhon (bazilik), kashnich (koriander), arpabodiyon, yalpiz, sebarga hisoblanadi. Mahalliy aholi bunday o'simliklarning mo'jizaviy kuchi haqida oldindan bilishadi. Ular iste'mol qilinadi, ziravor sifatida ovqatlarga qo'shiladi, choy damlanadi, dori sifatida ishlatiladi, shuningdek kosmetologiya yo'nalishida ham qo'llaniladi. Dorixonalar va kosmetika do'konlarida siz monoo'tlardan, maxsus o'simlik damlamasi, vanna uchun o'simlik preparatlari, turli xil foydali qo'shimchalar, efir moylari va

boshqalardan xarid qilish mumkin. Har bir mahsulot tarkibida tabiiy minerallar, vitaminlar va biologik faol moddalar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, botanika fanini o‘qitishda sayohatlar, amaliy mashg‘ulotlar laboratoriya ishlari bilan bir qatorda dorivor o‘simliklarning foydali xususiyatlarini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Buni bilgan bola atrof muhit bilan o‘simlik hayotini o‘rgana oladi va bog‘ligini anglaydi. Laboratoriya ishlari hujayrani o‘rganish bilan hayotni molekulyar asoslarini hujayra, toqima kabilarni o‘rganadi. Botanikani o‘qitishda mahalliy sharoitimizdagi o‘simliklar o‘ziga xosligini ham o‘rgatish alohida ahamiyatga egadir. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘quvchi kitobda o‘qigan malumotni, slaydda ko‘rgan malumotni, ishlagan testlarda ega bo‘lgan tushuncha tabiiy o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa o‘quvchida o‘zlashtirish qobiliyati ikki hissa ortadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
3. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
4. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
5. Xoliqov K., O‘zbekiston janubidagi dorivor o‘simliklar, T., 1992;